TOSHKENT VILOYATI ZANGIOTA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 11-iyul 145-10-138-Q/24 Zangiota tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 15-yanvardagi 17-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-yanvardagi “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosida energiya ta’minotini tashkil etish sohasini tartibga solish va rivojlantirish to‘g‘risida”gi 13-sonli hamda Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 15-yanvardagi 17-10-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-yanvardagi 13-sonli qarori hamda Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 15-yanvardagi 17-10-0-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

2023-yil 1-maydan boshlab foydalanishga topshiriladigan ko‘p qavatli uylar tomlari bo‘sh qismining kamida 50 foizida quyosh panellarini o‘rnatish talabi joriy qilinganligi;

2023-yilda foydalanishga topshiriladigan 765 ta ko‘p qavatli uylarda jami quvvati 15,3 MVt bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatilishi belgilanganligi;

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda tadbirkorlik subyektlarini jalb qilgan holda, ko‘p qavatli uylarda quyosh panellarini o‘rnatish va ularga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha kompaniyalarni tashkil etish vazifasi yuklanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasi tomonidan hududlarda o‘rnatilgan qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobotini yuritish bo‘yicha “Yashil energiya” axborot tizimi ishga tushirilganligi;

“Yashil energiya” axborot tizimidan foydalanish va uning uzluksiz ishlashini ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga mazkur qarorga asosan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi inobatga olinsin.

3. “Toshkent hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyati Zangiota filiali boshlig‘i (K.Ergashev), manfaatdor bo‘lim va tashkilotlar, tuman hokimligi “Yashil energiya” axborot tizimiga tegishli ma’lumotlarni o‘z vaqtida kiritib borish choralarini ko‘rsin.

4. Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 15-yanvardagi 17-10-0-Q/24-sonli qarori bilan viloyat davlat bojxona boshqarmasi;

2024-yil 1-fevralga qadar “Yashil energiya” axborot tizimi to‘liq funksional rejimida ishga tushirilishini va belgilangan tartibda “Toshkent hududiy elektr tarmoqlari” aksiyadorlik jamiyatiga o‘tkazilishi choralarini ko‘rsin.

“Yashil energiya” axborot tizimining uzluksiz ishlashini va kiritilayotgan ma’lumotlarning to‘g‘riligini doimiy nazorat qilsin.

5. Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (A.Arislanbayev) bir oy muddatda yangi foydalanishga topshiriladigan ko‘p qavatli uylar tomlarining bo‘sh qismini kamida 50 foizida quyosh panellarini o‘rnatish talabi shaharsozlik norma va qoidalari (SHNQ)ga kiritilishini inobatga olsin.

6. Tegishli bo‘lim va tashkilotlar, tuman hokimligi bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan huquqiy-me’yoriy hujjatlarni mazkur qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Berdiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **E.E.RUSTAMOV**